



Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi to'g'risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining (keyingi o'rinlarda – Boshqarma) maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Boshqarma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risida"gi nizomga, mazkur nizomga, hamda boshqa qonun hujjatlarga amal qiladi.

Boshqarma "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi hamda "Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli" (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelidagi 3-bosqich "Ishlab chiqish jarayonlarini shakllantirish"ning 3.5 va 3.7-jarayonlari, 4-bosqich "Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish"ning 4.2, 4.3 va 4.4-jarayonlari, 5-bosqich "Ma'lumotlarni qayta ishlash"ning 5.1-jarayoni va 6-bosqich "Ma'lumotlarni tahlil qilish"ning 6.4-jarayonida bevosita hamda qolgan bosqichlarda bilvosita ishtirok etadi.

4. Boshqarma axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash, tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatini Statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tumanlar va shaharlar statistika bo'limlari

(keyingi o‘rinlarda – hududiy statistika organlari) bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Boshqarma o‘z faoliyatini Statistika agentligi direktori rahbarligida amalga oshiradi.

Boshqarma o‘z vakolatiga kiruvchi vazifalar bo‘yicha Statistika agentligi direktorining Raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) axborot xavfsizligi sohasida:

- Statistika agentligi tizimida yagona axborot xavfsizligi siyosatini belgilash;
- Statistika agentligining yagona axborot tizimi xavfsiz ishlashini (muhit nazorati, dasturiy ta‘minotning yangi versiyalarini qo‘llab-quvvatlash, axborotni xaxiralash va hokazo) ta‘minlash;

- tarmoqdagi ishchi stansiya va tizimli dasturiy ta‘minotlarning xavfsizligi, ishonchliligi va ularning o‘zaro moslik talablarini ishlab chiqish;

- Statistika agentligida Internet tarmog‘iga ulanishni tashkil etish va samarali ishlashini ta‘minlash;

- axborot sohasidagi ehtimoliy tahdidlar, jumladan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kutilmagan holat, vaziyat va insidentlarning hamda tizimdan konfidensial ma‘lumotlarning sizib chiqib ketishini oldini olish.

b) kiberxavfsizlik sohasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar:

- kiberxavfsizlik sohasida tegishli davlat tashkilot va idoralari bilan hamkorlikni ta‘minlash;

- foydalanuvchilarni (xodimlar) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot va kiberxavfsizlik sohasida malakasini oshirish;

- kiberxavfsizlik zaifliklari, insidentlari va tahdidlariga doir kelib tushgan taklif va tavsiyalarni o‘rganish va ijrosini ta‘minlash;

- Statistika agentligi rasmiy veb-saytini axborot va kiberxavfsizlik talablari asosida, shuningdek, zaifliklar mavjudligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish.

v) tarmoqni boshqarish sohasida:

- tarmoq boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

- Statistika agentligi va hududiy statistika organlari o‘rtasida korporativ tarmoqning faoliyat ko‘rsatishini boshqarish;

- tarmoqlarning topologiyasini modernizatsiya qilish, lokal tarmoq va kommunikatsiya uskunalarni tuzilishini aniqlash;

- Statistika agentligi korporativ tarmog‘iga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash.

g) texnik rivojlantirish sohasida:

- axborot va telekommunikatsiya tizimlarini texnik rivojlantirish bo'yicha ishlarni xalqaro standartlar talablariga mos ravishda olib borish;
- yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tizimga bosqichma-bosqich joriy etish;
- hududiy statistika organlari axborot-kommunikatsiya infratuzilmalarini takomillashtirish;
- Statistika agentligining moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar va bozor konyukturasini o'rganish.

7. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

- xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;
- axborot va kiberxavflarni tahlil qiladi;
- axborot va kiberxavfsizlik tizimlarini modernizatsiya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar beradi;
- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlaydigan texnik-dasturiy ta'minotlarni ishlashini ta'minlaydi;
- axborot va kiberxavfsizlik bo'yicha ichki tashkiliy va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi;
- berilgan vakolatlar doirasida foydalanuvchilarga Statistika agentligini axborot tizimlari va tarmoq servislaridan foydalanishning cheklanishini ta'minlaydi;
- tarqatilishi chegaralangan ma'lumotlarni oshkor qilish, hujjatlarini yo'qotish, shuningdek, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniqlangan boshqa qonunbuzarliklarni tekshirishlarida ishtirok etadi;
- qabul qilingan axborot xavfsizlik siyosatiga muvofiq, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlaydi hamda foydalanuvchilarni nazorat qiladi;
- tarmoqlarning topologiyasini, tarmoq va server jihozlari, ma'lumotlarni saqlash tizimlari, shuningdek, tizim dasturiy ta'minotlari tarkibini belgilaydi;
- Statistika agentligi rasmiy veb-saytini tizimli boshqarishni amalga oshiradi;
- Statistika organlarida yangi axborot texnologiyalarini joriy etishni muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi;
- hududiy statistika organlariga axborot texnologiyalarini, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlashni joriy etadi, shuningdek, texnik rivojlantirish bo'yicha uslubiy va konsultativ yordam ko'rsatadi;
- Statistika agentligi tizimidagi ishchi stansiya va boshqa texnik qurilmalarning butligi va ulardan samarali foydalanish yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
- Statistika agentligi balansidagi ishchi stansiya va boshqa texnik qurilmalarni

ta'mirlash va modernizatsiya qilishni ta'minlaydi;

- elektron qurilmalarning dasturiy va texnik nosozliklarini bartaraf etadi;
- texnikaviy hujjatlarga muvofiq, profilaktik ishlarni bajaradi;
- axborot va kommunikatsiya qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtiradi;

- telefon qurilmalari hamda liniyalarining uzluksiz va sifatli ishlashini ta'minlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalari vazirligining, shuningdek, tegishli vazirlik va idoralarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda axborot va kiberxavfsizlik bo'limlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalari vazirligiga statistika tizimida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha dasturlarini bajarishi yuzasidan ma'lumot kiritadi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida takliflar tayyorlaydi;

Boshqarma belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

3-bob. Boshqarmaning huquqlari va majburiyatlari

8. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

- Statistika agentligi markaziy apparati bo'linmalari o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur materiallar hamda ma'lumotlarni belgilangan tartibda hududiy statistika organlaridan talab qilish;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash va texnik rivojlantirish samaradorligini oshirish sohasida Statistika agentligi rahbariyatiga takliflar kiritish;

- Statistika agentligi boshqarma bo'limlariga apparat-dasturiy komplekslardan foydalanish, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yo'riqnoma berish;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish;

- ishchi stansiyalar va periferiya qurilmalarini ta'mirlash uchun zarur materiallarga talabnoma berish;

- zahira uskunalar va ehtiyot qismlarni yetkazib berishda Statistika agentligining transport vositasidan foydalanish, shuningdek, servis markazlariga kafolatli uskunalarni yetkazib berish uchun foydalanish;

- xodimlar malakalarini oshirish uchun zarur uslubiy va maslahat yordamini olish;

- Boshqarma faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar, shu jumladan, xalqaro loyiha va yig'ilishlarda ishtirok etish.

9. Boshqarma majburiyatlari:

- yuklangan vazifalarni samarali va sifatli bajarish;
- vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;
- Statistika agentligi prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanilayotgan usullarni takomillashtirish;
- boshqarma xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini taminlash.

4-bob. Boshqarmaning tuzilmasi

10. Boshqarma tuzilmasi:

- boshqarma boshlig'i;
- a) Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limi, jumladan:*
 - boshqarma boshlig'i o'rinbosari-bo'lim boshlig'i;
 - bosh mutaxassislari;
 - yetakchi muhandis-sistema ma'murlari;
 - axborot xavfsizligi bo'yicha yetakchi muhandis.
- b) Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo'limi, jumladan:*
 - bo'lim boshlig'i;
 - bosh mutaxassis;
 - yetakchi mutaxassis;
 - hisoblash texnikasini ta'mirlash bo'yicha yetakchi muhandislar;
 - yetakchi aloqa muhandisi;
 - yangi texnika va texnologiya bo'yicha yetakchi muhandis.

11. Boshqarmaning tarkibiga kiruvchi bo'limlar ishiga Boshqarma boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Boshqarma boshlig'i, Boshqarma boshlig'i o'rinbosari-bo'lim boshlig'i, bo'lim boshliqlari, bosh mutaxassislari, yetakchi mutaxassis hamda yetakchi muhandislari Statistika agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Boshqarma boshlig'ini tayinlash O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

13. Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

- Statistika agentligi axborot resurslarining xavfsizlik darajasini ta'minlash;
- Statistika agentligi serverlari, ishchi stansiyalarning uzluksiz ishlashini

hamda serverlardan zaxira nusxalar olish;

- Internet tarmog'iga ulanishni, O'zbekiston Respublikasi Elektron hukumatning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'ini uzluksiz ishlashini ta'minlaydi;

- Statistika agentligi rasmiy veb-saytini tizimli ishlashini ta'minlaydi;

- ishchi stansiya va periferik uskunalar bo'yicha audit o'tkazilishini ta'minlaydi.

14. Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

- korporativ tarmoqning uzluksiz ishlashini hamda ularga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi;

- AKT texnik vositalari bozorining rivojlanish tendensiyalarini o'rganadi va tahlil qiladi;

- ishchi stansiyalar, uskunalar va boshqa texnik vositalarni xarid qilish uchun texnik spetsifikatsiyalarini tayyorlaydi;

- ishchi stansiyalar, periferiya qurilmalar va nusxa ko'chirish apparatlarini monitoringini yuritadi va hisobga oladi;

- amaldagi ishchi stansiya va boshqa texnik qurilmalardan foydalanish muddatini uzaytirish, ta'mirlash hamda ularni modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi;

- tizimdagi ishchi stansiyalarni profilaktika qilish, ofis jihozlariga xizmat ko'rsatish hamda inventarizatsiya o'tkazilishini ta'minlaydi;

- Statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalarida, hududiy statistika organlarida, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida (keyingi o'rinlarda – Institut) ishchi stansiyalarni ishlatish va butligini ta'minlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar beradi va nazorat qiladi;

- elektron qurilmalarning nosoz ishlashini bartaraf etadi;

- texnikaviy hujjatlar talablariga muvofiq profilaktik ishlarni bajaradi;

- texnik xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtiradi;

- telefon va boshqa aloqa qurilmalari hamda liniyalarining uzluksiz va sifatli ishlashini ta'minlaydi.

5-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish

15. Boshqarmaning ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan statistika ishlari dasturi, Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risida nizom, mazkur nizom, Statistika agentligi direktorining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq hamda Statistika agentligining ish rejalari, Boshqarmaning ish rejalari va Boshqarma xodimlarining vazifalari asosida tashkil

etiladi, shuningdek, “Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) va “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida amalga oshiriladi.

Boshqarmaning ish rejasi Statistika agentligi direktori tomonidan tasdiqlanadigan ish rejaları asosida shakllantiriladi va direktorning Raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalari boshqarma boshlig‘i tomonidan bo‘linmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va Statistika agentligi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

16. Boshqarma boshlig‘i:

- Boshqarmaning butun faoliyatiga rahbarlik qiladi, boshqarma tarkibiga kiruvchi bo‘limlar boshliqlarining ishlarini tashkillashtiradi, boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni bajarilishi, ijro va mehnat intizomi holati uchun shaxsan javob beradi;

- Boshqarma xodimlari jadvali va tasdiqlangan tuzilmaga muvofiq, nomzodlarni malaka darajasini oshirish, kasbiy faoliyatini oshirish, imtiyozlar va ularni intizomiy jazolash chora- tadbirlarini aniqlik va diqqat bilan o‘rganib chiqqan holda rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

- Boshqarma ish reja loyihasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun direktorning Raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosariga taqdim etadi;

- Boshqarma faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini nazorat qiladi;

- Boshqarma xodimlari o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi;

- Statistika agentligi majlislar va yig‘ilishlarida, shuningdek, Statistika agentligi rahbariyati topshirig‘iga asosan boshqaruv faoliyatiga kiruvchi va idoralararo ishchi guruhlar masalalarida ishtirok etadi;

- Statistika agentligi direktori va uning o‘rinbosarlari topshiriqlariga muvofiq, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, qo‘yilgan ustuvor vazifalarni yechishda yanada samarali takliflarni ishlab chiqish va tayyorlashni amalga oshiradi;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta‘minlash, tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo‘yicha bo‘linma rahbarlari hamda xodimlariga konsultativ va uslubiy yordam ko‘rsatadi;

- me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, rejalar va dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda ishtirok etadi;

- Boshqarma ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralari ko‘radi;

- Boshqarma kadrlar zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta‘minlaydi;

- ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi.

Boshqarma boshlig'i o'z vazifasini qonun hujjatlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra vaqtinchalik bajara olmagan taqdirda uning vazifasini boshqarma boshlig'i o'rinbosari vaqtinchalik bajaradi.

17. Boshqarma boshlig'i o'rinbosari (Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limi boshlig'i):

- Boshqarma boshlig'i o'z vazifasini qonun hujjatlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra vaqtinchalik bajara olmagan taqdirda uning vazifasini vaqtinchalik bajaradi;

- qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida samarali tayyorlanishini, shuningdek, Boshqarma va bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini nazorat va tashkil qiladi;

- Boshqarma va bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash va ularning ishini muvofiqlashtirish, Boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini nazorat qiladi;

- Boshqarma va bo'lim ishlarining samaradorlik darajasini oshirish hamda yangi kadrlar bilan to'ldirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- Boshqarmaning ish rejasi loyahasini ishlab chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ushbu rejada bo'lim faoliyatiga tegishli chora tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlaydi, xodimlarning ishini muvofiqlashtiradi, ular o'rtasida kundalik topshiriq va vazifalarni taqsimlaydi;

- yagona axborot tizimining xavfsiz ishlashini hamda tizimdagi server, ish stansiya va boshqa qurilma vositalarning samarali ishlashini nazoratini ta'minlaydi;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash yuzasidan o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi.

18. Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo'limi boshlig'i:

- Boshqarma boshlig'i o'rinbosari o'z vazifasini qonun hujjatlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra vaqtinchalik bajara olmagan taqdirda uning vazifasini vaqtinchalik bajaradi;

- boshqarmaning ish rejasi loyahasini ishlab chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, bo'limga yuklatilgan chora-tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash, xodimlarning ishini muvofiqlashtirish va ular o'rtasida kundalik topshiriq va vazifalarni taqsimlaydi;

- qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida samarali tayyorlanishini, shuningdek, bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini amalga

oshiradi va tashkil qiladi;

- bo‘limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini nazoratini olib boradi va ijrosini ta’minlaydi;

- bo‘lim ishlarining samaradorlik darajasini oshirish hamda yangi kadrlar bilan to‘ldirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

- bo‘lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini tashkil etadi;

- boshqarmaning ish rejalarida bo‘lim faoliyatiga tegishli masalalarni o‘rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

- bo‘lim faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

- bo‘lim xodimlari tomonidan vazifalarning o‘z vaqtida, to‘g‘ri va to‘liq bajarilishini nazorat qiladi;

- tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish yuzasidan o‘z lavozim yo‘riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi.

19. Axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘limi bosh mutaxassislari:

- bo‘lim boshlig‘i o‘z vazifasini qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra vaqtinchalik bajara olmagan taqdirda uning vazifasini vaqtinchalik bajaradi;

- boshqarmaning ish rejasi loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, bo‘limga yuklatilgan chora-tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta’minlash, xodimlarning ishini muvofiqlashtirish va ular o‘rtasida kundalik topshiriq va vazifalarni taqsimlash bo‘yicha bo‘lim boshlig‘iga yaqindan yordam beradi;

- qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o‘z vaqtida samarali tayyorlanishini, shuningdek, Boshqarma faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini amalga oshiradi va tashkil qiladi;

- bo‘lim ishlarining samaradorlik darajasini oshirish hamda yangi kadrlar bilan to‘ldirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

- boshqarma va bo‘lim faoliyatiga oid me‘yoriy-huquqiy va idoraviy tartib-qoidalarni belgilovchi hujjatlarni o‘rganadi va ularga doimiy amal qiladi;

- bo‘lim faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

- yagona axborot tizimining xavfsiz ishlashini hamda tizimdagi server, ish stansiya va boshqa qurilma vositalarning samarali ishlashini ta’minlaydi;

- server va ish stansiyalarining umumiy ishlash holatini nazorat qiladi, aniqlangan dasturiy nosozliklar sabablarini o‘rganadi va bartaraf qiladi;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash yuzasidan o‘z lavozim yo‘riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi.

20. Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi:

- bo‘lim boshlig‘i o‘z vazifasini qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan sabablarga

ko'ra vaqtinchalik bajara olmagan taqdirda uning vazifasini vaqtinchalik bajaradi;

- boshqarmaning ish rejasi loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, bo'linga yuklatilgan chora-tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash, xodimlarning ishini muvofiqlashtirish va ular o'rtasida kundalik topshiriq va vazifalarni taqsimlash bo'yicha bo'lim boshlig'iga yaqindan yordam beradi;

- bo'lim ishlarining samaradorlik darajasini oshirish hamda yangi kadrlar bilan to'ldirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini tashkil etadi;

- bo'lim faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- boshqarmaning ish rejalarida bo'lim faoliyatiga tegishli masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish yuzasidan o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi;

21. Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limi axborot xavfsizligi bo'yicha yetakchi muhandisi:

- boshqarmaning ish rejasi loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, bo'linga yuklatilgan chora-tadbirlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash, xodimlarning ishini muvofiqlashtirish va ular o'rtasida kundalik topshiriq va vazifalarni taqsimlash bo'yicha bo'lim boshlig'iga yaqindan yordam beradi;

- Boshqarma faoliyatiga tegishli ichki me'yoriy-metodologik hujjatlarni respublikamizda qabul qilinayotgan yangi qonunlar va Statistika agentligi rahbariyati talablaridan kelib chiqib tahlil qilib borish, bu borada yangi hujjat loyihalarini tayyorlaydi;

- Markaziy apparatning axborot va kiberxavfsizlik holatini monitoring qilish hamda bu masalada tegishli idoralardan kelgan so'rovnomalar ijrosini ta'minlaydi;

- amaldagi axborot xavfsizligi siyosatini dolzarbligini tahlil qilib boradi;

- axborot xavfsizligi tahdidlariga doir ma'lumotlarni umumiyashtirish, o'rganish va tahlil qilib boradi;

- tizimdan konfidensial ma'lumotlarning sizib chiqib ketishining oldini olishga qaratilgan ishlarni nazorat qiladi;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha markaziy apparat bo'linmalariga va hududiy statistika organlariga maslahat yordamini ko'rsatadi;

- axborot va kiberxavfsizlik sohasida tegishli davlat tashkilot va idoralari bilan hamkorlikni ta'minlaydi;

- kiberxavfsizlik zaifliklari, insidentlari va tahdidlariga doir kelib tushgan taklif va tavsiyalarni o'rganadi va ijrosini ta'minlaydi.

22. Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'limi yetakchi muhandis-sistema ma'murlari:

- Markaziy apparatning axborot va kiberxavfsizlik holatini ta'minlash, monitoring qilish va saqlash hamda bu masalada tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni ta'minlaydi;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha markaziy apparat bo'linmalariga va hududiy statistika organlariga maslahat yordamini ko'rsatadi;

- kiberxavfsizlik zaifliklari, insidentlari va tahdidlariga doir samarali yechim topish, taklif va tavsiyalarni berish hamda ularni bartaraf etishni ta'minlaydi;

- yagona axborot tizimining xavfsiz ishlashini hamda tizimdagi server, ish stansiya va boshqa qurilma vositalarning samarali ishlashini ta'minlaydi;

- server va ish stansiyalarning umumiy ishlash holatini nazorat qiladi, aniqlangan dasturiy nosozliklar sabablarini o'rganadi va bartaraf qiladi;

- axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash yuzasidan o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi.

23. Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo'limi yetakchi aloqa muhandisi:

- bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarida ishtirok etadi;

- bo'lim faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- boshqarmaning ish rejalarida bo'lim faoliyatiga tegishli masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- Statistika agentligi, hududiy boshqarmalar, davlat idoralari va xalqaro tashkilotlari orasida onlayn tarzda o'tkazilishi rejalashtirilgan videokonferensiyalarni sifatli tashkillashtirish va o'tkazilishini ta'minlaydi;

- amaldagi tarmoq liniyalari, tarmoq qurilmalari, ishchi stansiyalar, telefon, IP telefoniya va ofis jihozlaridan samarali foydalanish nazoratini ta'minlaydi;

- tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish yuzasidan o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi;

24. Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo'limi hisoblash texnikasini ta'mirlash bo'yicha yetakchi muhandislari:

- bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarida ishtirok etadi;

- bo'lim faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- boshqarmaning ish rejalarida bo'lim faoliyatiga tegishli masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

- xalqaro standartlarga mos yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini

o'rganish va tizimga bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

- tarmoqlarning topologiyasini modernizatsiya qilish, lokal tarmoq, periferiya qurilmalari va kommunikatsiya uskunalarni ta'mirlaydi;

- Statistika agentligining moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish bo'yicha bozor konstrukturasini va ilg'or xalqaro tajribalarini tahlil qiladi;

- tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish yuzasidan o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi;

25. Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo'limi yangi texnika va texnologiya bo'yicha yetakchi muhandisi:

- bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarida ishtirok etadi;

- bo'lim faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- amaldagi tarmoq liniyalari, tarmoq qurilmalari, ishchi stansiyalar, telefon, IP telefoniya va ofis jihozlaridan samarali foydalanish nazoratini ta'minlaydi;

- axborot va telekommunikatsiya tizimlarini texnik rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganadi, tahlil qiladi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni joriy etadi;

- Statistika agentligi markaziy apparatida va hududiy statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar beradi;

- tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish yuzasidan o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi.

26. Tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi:

- bo'lim faoliyatiga tegishli uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy etish ishlarida ishtirok etadi;

- bo'lim faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- amaldagi tarmoq liniyalari, tarmoq qurilmalari, ishchi stansiyalar, telefon, IP telefoniya va ofis jihozlaridan samarali foydalanish nazoratini ta'minlaydi;

- axborot va telekommunikatsiya tizimlarini texnik rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganadi, tahlil qiladi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni joriy etadi;

- Statistika agentligi markaziy apparatida va hududiy statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar beradi;

- tarmoq boshqaruvi va texnik rivojlantirish yuzasidan o'z lavozim yo'riqnomasiga asosan ishlarni tashkillashtiradi va bajaradi.